

**VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOS RAVISHDA OLISH YOKI
O‘TKAZISH BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNI ANIQLASH VA KVALIFIKATSIYA
QILISHDAGI AYRIM MUAMMOLARI**

Saidov Xurshid Axtam o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

“Tergov faoliyati” yo‘nalishi magistratura tinglovchisi

E-mail: saidovxurshid527@gmail.com

Tel: (99) 700 15 51

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11120773>

Annotatsiya. Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish va o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasining valyuta yakka hukmronligiga va pul-moliya tizimiga putur yetkazishini inobatga olib, mazkur maqolada valyuta qimmatliklari bilan bog‘liq jinoyatlarni aniqlash va kvalifikatsiya qilish jarayonlarida vujudga keladigan muammolarga yechimlar va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilingan. Shuningdek, berilgan takliflar natijasida soha rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarga erishish mumkin bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: valyuta qimmatliklari, chet el valyutasi, valyutani tartibga soluvchi davlat organi, madaniy boylik.

**CERTAIN PROBLEMS IN THE DETERMINATION AND QUALIFICATION OF
CRIMES RELATED TO LAUNDERING OR TRANSFER OF CURRENCY VALUES**

Abstract. Illegal acquisition and transfer of foreign exchange values is subject to the currency monopoly of the Republic of Uzbekistan and taking into account that it harms the monetary and financial system, this article analyzes the solutions to the problems that arise in the processes of identifying and qualifying crimes related to currency values and the measures being implemented. Also, as a result of the given proposals, it will be possible to achieve changes that can have a positive impact on the development of the industry.

Key words: currency values, foreign currency, currency regulatory body, cultural wealth.

**ОТДЕЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ В ОПРЕДЕЛЕНИИ И КВАЛИФИКАЦИИ
ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ОТМЫВАНИЕМ ИЛИ ПЕРЕДАЧЕЙ
ВАЛЮТНЫХ ЦЕННОСТЕЙ**

Аннотация. Незаконное приобретение и передача валютных ценностей подпадает под действие валютной монополии Республики Узбекистан и учитывая, что это наносит вред денежно-финансовой системе, в данной статье анализируются пути решения проблем, возникающих в процессах выявления и квалификации преступлений, связанных с валютными ценностями, и реализуемые меры. Также в результате данных предложений удастся добиться изменений, способных оказать положительное влияние на развитие отрасли.

Ключевые слова: валютные ценности, иностранная валюта, орган валютного регулирования, культурные ценности.

Internet manbalarida, “Toshkent Xalqaro aeroportida «Toshkent-AERO» ixtisoslashtirilgan bojxona majmuasi xodimlari Rus imperatori Nikolay II davriga oid tarixiy tilla tangalarni noqonuniy olib chiqishga urinishni fosh qildilar. «Dunyo» nashrining Davlat bojxona

qo'mitasiga tayanib ma'lum qilishicha, bojxona nazorati jarayonida fuqaroning nazoratchilardan yashirincha, xususan, yo'lovchi bojxona deklaratsiyasida ham ko'rsatmasdan 8 dona tilla tangalarni olib o'tishga uringanligi aniqlangan. Shuningdek, uning tegishli idoralardan tanga olib chiqish uchun maxsus ruxsatnomasi ham bo'lmagan. Tangalar xorijga uchib ketayotgan fuqaroning buyumlari orasidan topilgan. Hozirda aniqlangan huquqbuzarlik fakti yuzasidan bojxona tekshiruvlari o'tkazilmoqda. Eslatib o'tamiz, «Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida»gi qonunning 8-moddasiga muvofiq ellik yil muqaddam va undan ham oldinroq yaratilgan madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi mumkin emas. Madaniy boyliklarni vaqtincha olib chiqish O'zbekiston Madaniyat vazirligi tomonidan berilgan maxsus guvohnoma bilangina amalga oshirilishi mumkin.»[7] kabi xabarlarni o'qib qolamiz.

Shuningdek, boshqa bir internet manbalarida esa "Toshkent shahrida huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirda fuqaro A.T. va boshqalar 1902 yilda ishlab chiqarilgan og'irligi 32,22 gram bo'lgan 1 dona "Nikolay-2" oltin tangasini 100 000 AQSh dollariga sotayotgan vaqtlarida ashyoviy dalillar bilan ushladi. Bu haqda Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Axborot xizmati xabar berdi. Madaniy meros agentligining xulosasiga ko'ra, ushbu oltin tanganing bugungi kundagi bahosi 1 mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur holat yuzasidan Jkning 177-moddasi (valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish) bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari o'tkazilmoqda.»[8] kabi xabarlarni o'qib qolamiz.

Endi o'z-o'zidan savol tug'iladi "Nikolay II oltin tangasi valyuta qimmatligimi yoki madaniy boylikmi?". Ushbu holatlar huquqbuzarlik aniqlanganda kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatadi.

Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish — O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 170-moddasiga ko'ra valyuta boyliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish uchun ma'muriy javobgarlik o'rnatilgan. Fuqarolarning qonunga xilof ravishda valyuta qimmatliklarini olishi yoki o'tkazishi, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 177-moddasiga asosan jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 22-oktabrdagi "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi O'RQ-573-son qonunida[2] valyuta qimmatliklari — chet el valyutasi, nominali chet el valyutasida ifodalangan qimmatli qog'ozlar va to'lov hujjatlari, norezidentlar tomonidan chiqarilgan, nominalga ega bo'lmagan qimmatli qog'ozlar, sof quyma oltin;

chet el valyutasi — muomaladagi hamda chet davlat (chet davlatlar guruhleri) hududida naqd to'lovning qonuniy vositasi bo'lgan pul belgilari, shuningdek muomaladan chiqarilayotgan yoki muomaladan chiqarilgan, ammo almashtirilishi lozim bo'lgan pul belgilari, chet davlatlarning (chet davlatlar guruhlarining) pul birliklarida hamda xalqaro pul birliklarida yoki hisob-kitob birliklarida bank hisobvaraqlarida va omonatlarida turgan mablag'lar;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000 yil 28 apreldagi "Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida"gi 8-son Qarorida[3] sudlarning e'tibori shunga qaratilsinki, valyuta qimmatliklari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining Maxsus qismi sakkizinchi bo'limida

belgilangan bo'lib, uni kengaytirilgan holda talqin etish mumkin emas. Bunday qimmatliklarga quyidagilar kiradi:

chet el valyutasi;

chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar — fond boyliklari (aktsiya, obligatsiya va boshqalar);

chet el valyutasi bilan to'lanadigan to'lov hujjatlari (cheklar, vekselar, akkreditiv va boshqalar);

har qanday ko'rinish va holatdagi qimmatbaho metallar — oltin, kumush, platina va platina guruhiga kiruvchi metallar (palladiy, iridiy, radiy, ruteniy va osmiy), shunday metallardan yasalgan zargarlik va boshqa ro'zg'or buyumlari hamda ularning rezgilari bundan mustasno;

xom ashyo yoki ishlov berilgan holatdagi tabiiy qimmatbaho toshlar — olmos, yoqut, zumrad, safir, aleksandritlar, shuningdek marvaridlar, shunday toshlar hamda ularning rezgilaridan yasalgan zargarlik va boshqa ro'zg'or buyumlari bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi Qonuni 4-moddasiga ko'ra, chet el valyutasi jumlasiga quyidagilar kiradi:

muomaladagi hamda chet davlat (chet davlatlar guruhi) hududida naqd to'lovning qonuniy vositasi bo'lgan pul belgilari, shuningdek muomaladan chiqarilayotgan yoki muomaladan chiqarilgan, ammo almashtirilishi lozim bo'lgan pul belgilari, chet davlatlarning (chet davlatlar guruhining) pul birliklarida hamda xalqaro pul birliklari;

hisob-kitob birliklarida bank hisobvaraqlarida va omonatlarida turgan mablag'lar.

Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish deb, O'zbekiston Respublikasi hududida ushbu harakatlar sodir etilgan vaqtda valyuta qimmatliklarini o'rnatilgan tartiblarni buzgan holda sotib olish, sotish yoki almashtirish tushuniladi.

Valyuta qimmatliklarini saqlash va tashish holatlari o'zicha valyuta qimmatliklarini noqonuniy olish yoki o'tkazishni tashkil etmaydi.

Valyuta qimmatliklariga nisbatan bo'lgan egalik huquqi boshqa shaxsga qonunga xilof ravishda o'tgan vaqtdan boshlab jinoyat tamom bo'lgan deb hisoblanadi.

Chet el valyutasining ancha, ko'p va juda ko'p miqdorda ekanligini belgilash masalasini hal etish tergov va sud organlari vakolatiga kiradi. Ular bu masalani hal etishda bitimlar amalga oshirilgan kunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan chet el valyutasining O'zbekiston Respublikasining pul birligiga nisbatan kursidan kelib chiqishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 30 avgustdagi "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi 269-II-sonli Qonunida[4]:

madaniy meros ob'ektlari — moddiy va nomoddiy madaniy meros ob'ektlari;

moddiy madaniy meros ob'ektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar;

nomoddiy madaniy meros ob'ektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

Moddiy madaniy meros ob'ektlari quyidagi toifalarga bo'linadi:

butun mamlakat tarixi va madaniyati uchun alohida ahamiyatga molik tarixiy, ilmiy, me'moriy, badiiy va memorial qimmatga ega bo'lgan respublika ahamiyatidagi moddiy madaniy meros ob'ektlari;

viloyat, tuman, shahar tarixi va madaniyati uchun alohida ahamiyatga molik tarixiy, ilmiy, me'moriy, badiiy va memorial qimmatga ega bo'lgan mahalliy ahamiyatdagi moddiy madaniy meros ob'ektlari.

Quyidagilar mazkur Qonunning ta'siri ostida bo'ladi:

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan yaratilgan madaniy boyliklar;

chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida yaratilgan madaniy boyliklar;

O'zbekiston Respublikasi hududida topilgan madaniy boyliklar;

muzeylarda, axborot-kutubxona muassasalarida, arxivlarda, idoraviy arxivlarda, kino-, foto-, fonotekalarda, suratlar galereyalarida va boshqa saqlash joylarida to'plangan madaniy boyliklar;

qaysi davlatlarga mansub bo'lsa, o'sha davlatlarning vakolatli organlari roziligi bilan arxeologik, etnologik va tabiiy-ilmiy ekspeditsiyalar tomonidan qo'lga kiritilgan madaniy boyliklar;

ixtiyoriy ravishda ayirboshlashlar natijasida olingan madaniy boyliklar;

qaysi davlatlarga mansub bo'lsa, o'sha davlatlarning vakolatli organlari roziligi bilan meros, hadya sifatida olingan yoki qonuniy qo'lga kiritilgan madaniy boyliklar;

chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan madaniy boyliklar.

Olib chiqilayotgan va olib kirilayotgan madaniy boyliklarga davlat mulki huquqi hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mulk huquqi yuzaga kelishiga quyidagilar asos bo'ladi:

madaniy boyliklar davlat byudjeti hisobiga yaratilganligi;

madaniy boyliklar yuridik va jismoniy shaxslarning o'z faoliyati hisobiga yaratilganligi;

madaniy boylik yaratilishi yoki qo'lga kiritilishiga asos bo'lgan bitimlar;

meros olish.

Ayni paytda intellektual mulk ob'ekti ham bo'lgan madaniy boyliklarga mulk huquqi qonunchilik bilan tartibga solinadi.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi mumkin emas:

ellik yil muqaddam va undan ham oldinroq yaratilgan madaniy boyliklar;

davlat tomonidan muhofaza ro'yxatlari va reestrlariga kiritilgan madaniy boyliklar;

muzeylar, axborot-kutubxona muassasalari, arxivlar, idoraviy arxivlar va boshqa saqlash joylarida doimiy saqlanayotgan madaniy boyliklar.

Olib chiqilishi mumkin bo'lmagan madaniy boyliklarni realizatsiya qilish bu boyliklarning O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqilishi mumkin emasligi to'g'risida xaridor yozma ravishda ogohlantirilganidan keyingina amalga oshiriladi.

Madaniy boyliklarni kimoshdi savdosiga (auksionga) qo'yish O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan kelishuvga ko'ra amalga oshiriladi. Madaniy boyliklarni realizatsiya qilishda ishtirok etuvchi yuridik shaxslar o'z faoliyatini belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligini xabardor qilgan holda amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi madaniy meros agentligi huzuridagi badiiy ekspertlar kengashi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 474- son qaroriga 2-ilova "O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi huzuridagi Badiiy ekspertlar kengashi to'g'risida"gi Nizom[5] O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi huzuridagi Badiiy ekspertlar kengashining (keyingi o'rinlarda Kengash deb ataladi) asosiy vazifalari, huquqlari va majburiyatlarini, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Quyidagilar Kengashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi tomonidan taqdim etilgan yuksak badiiy qiymatga ega bo'lgan tasviriy va amaliy san'at asarlari, shuningdek, boshqa madaniy boyliklarni ekspertizadan o'tkazish va ularning qiymatini baholash;

davlat buyurtmalari bo'yicha bajariladigan badiiy asarlarning eskizlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash, ularning badiiy qiymati va shartnoma tuzish imkoniyatlari to'g'risida tavsiyalar berish; yuksak badiiy qiymatga ega bo'lgan rang tasvir, miniatyura, haykaltaroshlik, grafika, dekorativ-amaliy san'at, installatsiya asarlarini ko'zdan kechirish, g'oyaviy-badiiy qiymati, bajarilgan ishlarni qabul qilish va mualliflik haqining miqdori bo'yicha xulosalar berish.

Demak, fuqarolar tomonidan 19-20 asrlarda pul birligi sifatida ishlab chiqarilgan va o'sha davrda muomala vositasi bo'lgan "Nikolay 2" tilla tangalarini sotish vaqtida tezkor-qidiruv tadbirlari amalga oshirilib, ushlangan vaqtda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi madaniy meros agentligi huzuridagi badiiy ekspertlar kengashi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 474- son qaroriga 2-ilova "O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi huzuridagi Badiiy ekspertlar kengashi to'g'risida"gi Nizomga asosan ushbu tangalarni ishlab chiqarilgan vaqtiga, narxiga va madaniy boyliklar sirasiga kirish kirmasligini aniqlik kiritish yuzasidan ekspertiza tayinlash zarur hisoblanadi.

Ekspertiza xulosasiga ko'ra mazkur tangalar madaniy boyliklar sirasiga kirishi aniqlangan taqdirda ushbu tangalarni valyuta qimmatliklari(muomaladan chiqarilgan chet el pul birligi) sifatida baholamaslik zarur.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutani tartibga soluvchi davlat organi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasini sotib olish va sotish bo'yicha operatsiyalarda valyuta kursi chet el valyutasiga bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqib, shartnomaviy asosda belgilanadi. Markaziy bank valyuta operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi, statistik hisobotlar va boshqa hisobotlar maqsadlari uchun, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida bojxona hamda boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish uchun valyuta kursini muntazam ravishda belgilab boradi. O'zbekiston Respublikasi hududida rezident va norezidentlar tomonidan chet el valyutasini sotib olish hamda sotish faqat O'zbekiston Respublikasi banklari orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida banklararo valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish va sotish faqat O'zbekiston Respublikasi banklari hamda Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi.

Biroq, O‘zbekiston Respublikasi banklari hamda Markaziy bank tomonidan “Nikolay 2” tilla tangalarining qiymatini belgilash, sotish va sotib olish tartibi mavjud emas.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining[1] 41-moddasida har bir shaxs mulkdor bo‘lish haqli ekanligi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining[6] 207-moddasi(Xususiy mulk huquqi) da “Xususiy mulk huquqi shaxsning qonunchilikka muvofiq tarzda qo‘lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir.Xususiy mulk bo‘lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi.” deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo‘lsak, ishlab chiqarilganiga ellik yildan ortiq bo‘lgan ashyolar madaniy boylik hisoblanganligi sababli “Nikolay 2” tilla tangalarini valyuta qimmatlik sifatida baholamaslik zarur deb hisoblaymiz.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 22-oktabrdagi “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘RQ-573-son Qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000 yil 28 apreldagi “Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 8-son Qarori
4. O‘zbekiston Respublikasining 2001 yil 30 avgustdagi “Madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi 269-II-sonli Qonuni
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-iyundagi "O‘zbekiston Respublikasi turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi madaniy meros agentligi huzuridagi badiiy ekspertlar kengashi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 474- son qaroriga 2-ilova “O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi huzuridagi Badiiy ekspertlar kengashi to‘g‘risida”gi Nizom
6. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
7. <http://m.xabar.uz/mahalliy/chegarada-nikolay-tangalari-toxtatib-qolindi>
8. <https://uznews.uz/uz/posts/65409>
9. https://t.me/Department_uz/4807
10. <https://daryo.uz/k/2023/06/06/toshkentda-qadimiy-oltin-tangani-100-ming-dollarga-sotmoqchi-bolganlar-ushlandi>
11. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/04/21/coins/>
12. https://t.me/Department_uz/2220